



Published: January 30, 2026



Read More Articles



Check for updates

Nurjamol NORMATOVA

*Samarqand davlat chet tillar
instituti dotsenti, PhD*

E-mail: normatova.nurjamol@mail.ru

OLIIY TA'LIM TALABALARIGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH AMALIYOTI: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Annotatsiya. Globalizatsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida ingliz tili bugungi kunda xalqaro muloqotning eng muhim vositasiga aylangan. U ilm-fan, texnologiya, biznes, diplomatiya va ta'lim sohalarida universal aloqa tiliga aylangani sababli, oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini samarali o'qitish masalasi nihoyatda dolzarbdir. Zamonaviy mehnat bozori talablariga ko'ra, ingliz tilini mukammal bilish talabaning kasbiy raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omillardan biridir.

So'nggi yillarda ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarining faol kirib kelishi ingliz tili o'qitish metodikasini yangi bosqichga ko'tarmoqda. Xususan, sun'iy intellekt asosida yaratilgan interaktiv platformalar, adaptiv o'quv tizimlari, virtual suhbatdoshlar, talaffuzni tekshiruvchi dasturlar va grammatik tahlil modullari talabalarning xorijiy til ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bunday texnologiyalar o'quvchining hozirgi bilim darajasini aniqlab, unga mos o'quv materiallarini taklif qiladi, o'rganish jarayonidagi xatolarni tezkor aniqlab, individual tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt; ta'lim trayektoriyasi; individual yondashuv; kommunikativlik; kasbiy mahorat.

THE PRACTICE OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TEACHING ENGLISH TO UNIVERSITY STUDENTS: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES

Abstract. In the context of rapid globalization, the English language has become one of the most essential tools of international communication. It serves as a universal medium in science, technology, business, diplomacy, and education, which makes the effective teaching of English in higher education institutions increasingly important. In today's competitive labor market, proficiency in English is considered a key factor that enhances a student's professional opportunities and global mobility.

In recent years, the active integration of artificial intelligence technologies into the educational process has brought English language teaching to a new stage of development. AI-based interactive platforms, adaptive learning systems, virtual conversation partners, pronunciation analysis tools, and automated grammar-checking modules are significantly improving students' foreign language skills. These technologies can assess learners' current proficiency levels, provide personalized learning materials, and offer real-time feedback to correct linguistic errors.

Keywords: artificial intelligence; learning trajectory; individual approach; communicative competence; professional skills

Ilm o'rganish har qaysi zamonda va har qaysi millat yoki dinlarda ham ilgari surilgan g'oyalardan biridir.

Oliy ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning asosiy maqsadlari til o'rganuvchilarning bilim darajasiga, kasbiy yo'nalishlariga qarab farqlanadi. Bunda talabalarga ingliz tilini o'qitish ularning ta'lim yo'nalishlarini nazarda tutgan holda birinchi bosqichda asosan o'qish ko'nikmasini rivojlantirishga, o'z kasbiy sohasi doirasida xorijiy adabiyotlarni o'qib tushunishni yo'lga qo'yishdan iboratdir. Biroq, mashhur ingliz metodisti S.Goh ta'kidlaganidek, "ta'lim oluvchi har qanday xorijiy tilni o'rganish jarayoniga kirishishi bilan, birinchi navbatda unda bu tilda gapirish (so'zlashish) ehtiyoji paydo bo'ladi" [1:46].

O'rganilayotgan xorijiy tilda o'z fikrlarini ifodalashda talabalar uchun eng murakkab jarayonlardan biri bu fikrlarni tartib bilan, muvofiq terminlar yordamida va qisqa vaqt ichida aniq ifodalab berishdir. Bu esa nutqni hosil qilishda ko'proq ichki nutq asosiy o'rin egallaganini ko'rsatadi va talabadagi nutq ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlantirilmaganligidan dalolat beradi. Og'zaki nutq ko'nikmalari tarkibidagi operatsiyalar avtomatlashganlik bosqichida bo'lishi, uning nutq vaziyatlariga muvofiq tarzda ishlatilishi, yangi (variantiv) sharoitlarda o'z sifatini saqlab qola olishi uning rivojlanganlik xususiyatini tasdiqlay oladi.

Sun'iy intellekt ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan yangicha yondashuv bo'lishiga qaramasdan, uning o'rni ayni masalada ijobiy ahamiyat kasb etmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda quyidagi asosiy vazifalarni bajarishda yordam berib kelmoqda:

1. Shaxsiylashtirilgan ta'lim – talabalar bilim darajasi, til ko'nikmalari va o'quv sur'atiga mos individual topshiriqlarni shakllantirishda;

2. Talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish – sun'iy intellekt asosidagi nutqni tanish tizimlari yordamida talaffuzdagi xatolarni aniqlash va to'g'rilash bo'yicha tavsiyalar berishda;

3. Interaktiv muloqot muhiti yaratish – chat-botlar va virtual suhbatdoshlar orqali talabalarni ingliz tilida real kommunikatsiya jarayoniga jalb etishda;

4. Avtomatik tahlil va baholash – yozma va og'zaki nutqni baholashda sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanib, o'quvchi bilimni tezkor va obyektiv tahlil qilishda;

5. Motivatsiyani oshirish – gamifikatsiya va adaptiv o'yin elementlari yordamida talabalarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish kabilarda.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tildagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning maqsadi – talabalarining turli sotsial-determinant vaziyatlarda amalga oshirishi kerak bo'lgan og'zaki muloqot ko'nikma va malakalarini hamda ushbu jarayondagi motivatsiyani rivojlantirish, amalda qo'llashdan iborat. Demak, oliy o'quv yurti bitiruvchisi xorijiy tilda erkin muloqot qila olishi, suhbatdoshning nutqiga qarata verbal va noverbal vositalar yordamida javob qaytara olishi, o'z mutaxassisligi doirasida kasbiy atamalardan foydalangan holda nutq (monolog yoki dialog) yarata olishi, nutqiy vaziyatlarda o'quv dasturlarida belgilangan mavzular asosida xorijiy tilda muloqot qila olishi lozim. Shuningdek, tayyorgarliksiz nutq – ya'ni o'zi va atrof muhit, unda sodir bo'layotgan real vaqt kesimidagi voqea-hodisalar haqida adekvat og'zaki munosabat bildirish qobiliyatiga ega bo'lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda nutqiy vaziyatni talabalarining mavjud muammo va ehtiyojlaridan, qiziqishlaridan kelib chiqqan holda tanlash, uning hayotiy va qiziqarli bo'lishiga katta ta'sir o'tkazadi. Shaxsga yo'naltirilgan nutq vaziyatlarini yaratish aqliy faoliyat bilan bir qatorda til o'rganuvchilarning ichki his-tuyg'ularini ham dars jarayoniga jalb etadi. Shu sababli og'zaki nutqni rivojlantirishda sun'iy intellekt asosidagi rolli o'yinlar, improvizatsiya va dramalashtirilgan sahnalar juda qo'l keladi.

Sun'iy intellektning xorijiy til o'qitishdagi yuqoridagi xususiyatlarini ta'kidlagan holda, mazkur afzalliklarini ko'rib chiqishni lozim topdik:

talabalar mustaqil ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishadi;
dars jarayoni samaradorligi oshadi, chunki SI o'qituvchining yordamchi vositasi sifatida doimiy ishlaydi.

o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash talabalar uchun qiziqarli va motivatsion muhit yaratadi;

vaqt va resurslardan oqilona foydalanish imkoniyati yuzaga keladi.

Xorijiy tilni o'zlashtirishning muhim tarkibiy qismi sifatida tilshunos-psixologlar tomonidan shuningdek ko'rgazmali qurollarga ham alohida ta'rif beriladi. Ular yordamida til o'rganuvchilarga psixologik-vizual ta'sir o'tkaziladi va dars jarayoniga o'zgacha ruh kiritiladi, qiziqish ortadi va til materiallari soni kengayadi [3:56]. Ko'rgazmali vositalar doirasida, biz, keng ma'noda barcha o'quv vositalari – rasm, diagramma, matn, film, audio-vizual effektlar bilan bir qatorda, ma'lumotni yetkazib beruvchi va o'zida kommunikativ maqsadlarni aks ettiruvchi zarur shart-sharoitlarni yaratishni ham nazarda tutamiz.

Bu o'z o'rnida talabalarni shaxs sifatida ma'naviy rivojlantirish, ularni tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati va ijtimoiy muhiti bilan tanishtirish, xalqaro maydonda o'z mutaxassisligi doirasida muloqot va muzokaralar olib borish imkoniyatini ochib beradi.

Ma'lumki, kundalik hayotda talabalar asl so'zlashuvchilar bilan real muloqot qilish imkoniyati bo'lmaganligi sababli, o'qituvchi taqlid qilishning yagona timsoliga aylanadi. Bunda o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlar o'rnatilmas ekan, og'zaki muloqotni rivojlantirishga erishish mumkin emas. Talabalarning ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonidagi yana bir muhim jihat, bu xorijiy tildagi bilim va ko'nikmalarni mashg'ulotlarning o'quv dasturidagi kam soatlar hisobida takomillashtirishdir.

Talabalarning ingliz tilidagi so'zlashuv ko'nikmalarining rivojlanishi asosan darsdan tashqarida sodir bo'ladi va talabaning mustaqil o'z ustida ishlash qobiliyatiga bog'liq. Shu munosabat bilan, xorijiy tildagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish dars jarayoni bilan bir qatorda, o'qituvchi nazorati ostida darsdan qo'shimcha ravishda sun'iy intellekt topshiriqlari bilan uzviy davom etishi kerak degan xulosaga kelamiz.

Shu o'rinda, ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishda yuzaga keladigan ayrim muammo va cheklovlar ham mavjudligini aytib o'tishimiz lozim:

SI texnologiyalari o'qituvchining metodik rahbarligini to'liq almashtira olmaydi;

texnik vositalar va barqaror internet tarmog'iga ehtiyoj yuqori;

tilning madaniy-ma'naviy jihatlarini o'rgatishda SI imkoniyatlari chegaralangan;

ba'zan noto'g'ri tarjima, grammatik yoki semantik xatoliklar uchrashi mumkin.

Talabaning mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi sun'iy intellekt bilan birlashtirilganda yuqoridagi kabi muammolarga yechim bo'la oladi. Ammo, jarayonda motivatsiya hosil qilinishi xorijiy tildagi og'zaki nutqni rivojlantirishdagi didaktik tayyorgarlikka borib taqaladi. Bunda talaba til o'rganish jarayonining to'laqonli teng huquqli a'zosiga aylanishi lozim, ya'ni unda rejalashtirish, introspeksiya (o'zini o'zi boshqarish) va avtonomlik qobiliyatlari talab etiladi.

Bunda gapirish – fikrni bayon qilish, shaklni o'ylab ko'rishda imkon kamligi va ifodalashning bir onda sodir bo'lishi kabi psixologik qiyinchiliklar bilan xarakterlanadi: gapirishning avtomatlashgan va avtomatlashmagan tomonlari ham psixologik qiyinchilik bilan bog'liq. Tafakkur va xotira gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish – avvaldan shakllanib ulgiran leksik va grammatik bilimlar ustida ishlash ekanligini hisobga olgan holda, og'zaki nutq faoliyati oldidan zarur bo'lgan leksik, grammatik hamda fonetik bilimlarni takrorlashga asoslanishi zarur.

Ya'ni ma'lumot oqimi va til vositalarining murakkablik darajasi oliy ta'lim talabalariga qo'yiladigan talablar asosida bosqichma bosqich takomillashtirib borilishi lozim. Xususan, gapirish

jarayonida talabalarda ko‘pincha nutqiy to‘xtam (pauza)lar yuzaga kelishi oqibatida nutqning effektivligi buzilishi kuzatiladi. Bunda asosiy sabablar sirasiga lug‘at (so‘z boyligi) yetishmasligi; jumla (taktlar) orasida qisqa to‘xtamlarning ko‘payishi; so‘zlovchining o‘zi bilgan va unutib qo‘ygan so‘z va iborani eslash jarayonida, shuningdek, tashqi ta’sirlar orqali bo‘linish (kimningdir gapga aralashishi, eshik taqillashi, telefon jiringlashi) kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Bular natijasida so‘zlovchining miyasida kichik stress holati kuzatilib, pauzaning cho‘zilib ketishi yoki umuman nutqni yakunlashga sabab bo‘lishi mumkin. Xorijiy til mashg‘ulotlariga o‘qituvchi kichik detallarga qadar tayyorlangan holda kelishi, turli qiziqarli rasmlar, qo‘shimcha materiallar, sxema, chizma, rasm, yangiliklar va boshqalarni tashkillashtirish bu vaziyatlarda yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda hulosa qilishimiz mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, individual yondashuvni ta’minlash hamda talabalar motivatsiyasini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish an’anaviy pedagogik metodlar bilan uyg‘unlikda olib borilgandagina yuqori natija beradi. Kelgusida sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalarini yanada takomillashtirish va ularni oliy ta’lim amaliyotiga keng joriy etish zarurdir.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Goh, C. (2007) Teaching speaking in the language classroom. –Singapore: SEAMEO Regional Language Centre. – 274 p.
2. Kaplan, A., & Haenlein, M. (2019). Rethinking artificial intelligence in education. Computers in Human Behavior, 92, 1–6.
3. Luckin, R. (2018). Machine learning and human intelligence: The future of education for the 21st century. London: UCL Institute of Education Press.
4. Selwyn, N. (2022). Education and technology: Key issues and debates. Bloomsbury Publishing.
5. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom - Ilm demakdir. Fan va turmush jurnali, 1989 yil, iyun (manbaa: <https://ziyouz.uz/suhbatlar/islom-ilm-demakdir-muftiy-muhammad-sodiq-muhammad-yusuf-bilan-suhbat-1989/?lng=lat>).
6. To‘xtasinov, I., & Normatova, N. (2024). Talabalarda kasbga yo‘naltirilgan ingliz tilidagi og‘zaki muloqotni rivojlantirishda yuqori samaradorlik va vaqt unumdorligiga erishish. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 463-466.

